

AHMAD YASSAVIY HIKMATLATINING O‘ZBEKISTONDAGI NASHRLARI HAQIDA MA’LUMOT

Mirjalol Juraqulov Sunnatillo o‘g‘li

BuxDU Matnshunoslik va adabiy

manbashunoslik yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiycha hikmatlar muallifi, tasavvuf olamining buyuk namoyondalaridan biri Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarining O‘zbekiston hududida amalga oshirilgan nashrlari haqida ma’lumot berildi. Shu bilan bir qatorda, hikmatlarning ba’zi nashrlari o‘zaro muqoyasa qilindi.

Kalit so‘zlar: mutasavvuf, hikmat, ishorat, murid, murshid, qo‘lyozma, nashr, tafovut, fonetik, leksik.

Hikmatlari yaratilgan davridan bugungacha Turkiy xalqlar orasida keng tariqa yoyilgan va sevilib aytilib kelinayotgan mutasavvuf, yassaviylik tariqatining asoschisi Xoja Ahmad Yassaviydir.

Barchamizga ma’lum bo‘lganidek, Ahmad Yassaviy XI asrda hozirgi Qozog‘istonning Turkiston viloyati Yassi shahrida tavallud topgan hisoblanadi. Otalari Alloh do‘stlaridan bo‘lib, ismlari shayx Ibrohimdir. Onalarining ismlari Oysha xotun-Qorasoch ona bo‘lgan.

Ahmad Yassaviy yoshlik chog‘idayoq onasi va otsidan yetim qolgan. Hikmatlarida keltirilgani kabi ilk ta’limni yetti yoshlarida Arslonbobdan olganlar:

Yetti yoshda Arslon bobom berdim salom,

Haq Mustafo omonatin qildi in’om,

O’shal vaqtda ming bir zikrin qildim tamom,

Nafsim o‘lib lomakong‘a oshdim mano[1,45], deya ilk murshidlari haqida ma‘lumot berganlar.

Ahmad Yassaviy keyinchalik Buxoroga borib, madrasalarda ta‘lim oladi. Davrining eng ulug‘ avliyolaridan biri Xoja Yusuf Hamadoniya murid tushadi.

Buyuk murshidning vafotlaridan so‘ngra, Xoja Hasan Andoqiy hamda Xoja Abdulloh Barqiylardan keyin Ahmad Yassaviy xalifalik vazifasini bajaradi. Ushbu muborak vazifani “ma‘naviy ishoratga ko‘ra”[2,5] Abduxoliq G‘ijduvoniya topshiradi va tug‘ilib o‘sgan maskaniga qaytadi.

Hayoti hikmatlarga to‘la bo‘lgan Alloh do‘sti o‘zidan so‘zda ham hikmatlar qoldirganligi barchamizga ma‘lum. Uning hikmatlari asrlar davomida sayqallanib, lison jihatdan davrimiz tiliga moslashgan, son jihatsan esa Yassaviy muridlari tarafidan ijodiy qo‘shimchalar kiritilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Ryhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik Instituti qo‘lyozmalar fondida Ahmad Yassaviy hikmatlarining Toshkent, Buxoro, Istanbul, Qozon shaharlarida bosilgan 33 ta toshbosma nusxalari saqlanmoqda[3,450]. Institut fondidagi shoir hikmatlarini o‘z ichiga olgan qo‘lyozmalarning umumiy soni 175 tani tashkil qiladi[3,450].

Shu bilan bir qatorda mamlakatimiz hududida hurriyatimizning ilk kunlaridan bugunga qadar Yassaviy hikmatlari bir necha marotaba nashr ettirildi. Xususan, 1991- yili ustoz Ibrohim Haqqulov, 1992- yili domla Mahmud Hasaniy, 1992-yili Rasulmuhammad Abdushukurov, 2006-yili Ibrohim Haqqulov va Nodirxon Hasan, 2008-yili Maryam Eshmuhammedova, 2011- yili Toji Qorayev hamda Abul Bozorovlar tarafidan hikmatlar nashr etildi. Hamda 2022-yili domla Nodirxon Hasan taraflaridan ham alohida nashr amalga oshirilgan.

Yuqorida zikr etilgan hikmarlar Istanbul, Qozon, Turkistonda ko‘chirilgan qo‘lyozma va chop ettirilgan toshbosma nusxalar asosida nashrga tayyorlangan.

Quyida biz I.Haqqulov, M.Hasaniy, N.Hasan, T.Qorayev hamda A.Bozorovlar tarafidan nashrga tayyorlangan hikmatlarning ba'zi xususiyatlariga diqqatimizni qaratamiz.

Ustoz Ibrohim Haqqulov nashri 1991-yili “G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti” tomonidan nashr ettirilgan. Ushbu nashr 1983-yili Turkiya turklaridan bo‘lgan olim Kamol Erarslon tomonidan chop ettirilgan “Devoni hikmatdan sochmalar” nomli nashrga asoslangandir. Hikmatlar soni 76 tani tashkil qiladi (“Me’rojnoma” ham shu hisobda). Hamda raqamlashtirilmagan 5 dona hikmat ham mavjud bo‘lib, jami hikmatlar soni 81 ta.

Domla Mahmud Hasaniy nashri 1992-yili “G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot – matbaa birlashmasi” tomonidan chop ettirilgan. Bu nashr 1836-yili Qozonda Rasulmuhammad Ashurboy o‘g‘li tomonidan chop ettirilgan nashrga asoslanib tuzilgan. Hikmatlarning ushbu sonida “Me’rojnoma” bilan birgalikda jami 150 ta hikmat o‘rin olgan.

O‘z davrining yetuk olimi hisoblangan ustoz Toji Qorayev hamda domla Abul Bozorovlarning ishlari 2011-yili “Hikmatlar kulliyoti” nomi ostida “O‘zbekiston” nashriyoti tomonidan nashr ettirilgan. Ushbu kitob “Hikmatlar kulliyoti” nomidagi Turkiston qo‘lyozma nusxasi asosida nashrga tayyorlangan. Bu nashrda jami hikmatlar soni 110 tani tashkil qiladi.

Shu bilan bir qatorda, 2022-yili domla Nodirxon Hasan tarafidan “Xoja Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg‘oniy” nomli to‘plam nashr ettirilgan. Ushbu to‘plam “O‘zbekiston” nashriyoti tomonidan chop ettirilgan. Bu chopdagi hikmatlar soni jami 82 tani o‘z ichiga oladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan nashrlarni ko‘zdan kechirganligimizda bir qancha farqlarga duch keldik. Avvalo, hikmatlarning son jihatdan farqliligi ko‘zga tashlanadi. Bundan tashqari nashrlar turli davlatlar bosmaxonalarida chop ettirilganligi uchun fonetik jihatdan o‘zaro farqlarga ham duch keldik. Xususan, 1991 va 1992- yilgi nashrlar son jihatdan o‘zaro farqlanadi. Birinchi nashrda 81 hikmat ikkinchi nashrda esa

150 dona hikmat o‘rin olgan bo‘lib, oradagi farq 69 tani tashkil qiladi. Bundan tashqari 1991- yilgi nashrda mavjud bo‘lgan 15 ta hikmat, 1992- yilgi nashrda mavjud emas.

Nashrlarda fonetik va leksik farqliliklari ham ko‘zga tashlanadi.

Bismilloh deb bayon aylay hikmat aytib,

*Toliblarg ‘a durri **guhar** sochtim mano*

Riyozatni qattiq tortib, qonlar yutib,

Man “Daftari soniy” so‘zin ochtim mano.

So‘zni ay(t)dim, har kim bo‘lsa diydor talab,

Jonni jong‘a payvand qilib, rangni ulab.

*G‘arib, faqir yetimlarni **boshin silab**,*

*Ko‘ngli **butun** xaloyiqdin qochdim mano...*

G‘arib, faqir yetimlarni Rasul so‘rdi

*O‘shal tuni meroj **uzra** diydor ko‘rdi.*

Qaytib tushub, g‘arib-faqir yetim so‘rdi,

G‘ariblarning izin izlab tushtum mano ...[3,8;9]

Yuqorida barcha nashrlarda mavjud bo‘lgan 1-hikmatdan parchalar keltirdik. Va ba’zi harf hamda so‘zlarni ajratib turuvchi rang bilan berdik. Sababi ushbu harf va so‘zlar nashrlarda turlicha yozilgan. Xususan, “*guhar*” so‘zi 1991,2011 hamda 2022-yilgi nashrlarda o‘zgarishsiz, 1992- yilgi nashrda esa, “*gavhar*” holida kelgan. “*Boshin silab*” so‘z birikmasi 2011 hamda 2022-yilgi nashrlarda aynan keltirilgan bo‘lsa, 1991-yilgi nashrda “*ko‘nglini ovlab*”, 1992- yilgi nashrda esa, “*ko‘nglini siylab*” tarzida keltirilgan. Hikmat tarkibidagi “*butun*” so‘zi 1992,2011 va 2022-yilgi nashrlarda shu tarzda, 1991-yilgi nashrda esa “*qattiq*”deb keltirilgan. “*Uzra*” so‘zi 2011-yilgi nashrda shu kalima bilan, 1991 va 1992- yilgi choplarda “*chiqib*”, 2022-yilgi nashrda esa “*borib*” so‘zlari bilan

yoʻzilgan. Hikmatdagi “*faqir yetim soʻrdi*” jumlasini 2011 hamda 2022-yilgi nashrlarda bir xil tarzda, 1991-yildagi toʻplamda “*yetim izlab yurdi*” kabi, 1992- yilgi chopda esa, “*faqir holin soʻrdi*” tarzida keltirilgan. Shu bilan bir qatorda “t”, “u”, “d” harflari oʻzaro yondosh boʻlgan tovushlar bilan ifodalangan. Masalan, “*sochtim*”, “*ochtim*” va “*tushtum*” soʻzlari “*ochdim*”, “*sochdim*” hamda “*tushdim*” deb ifodalangan.

Nomi zikr etilgan bu oʻzgarishlar maʼnoga taʼsir qilmagan balki nashriyot joylashgan mintaqaning til xususiyatlariga asoslangan boʻlib oʻzi xoslikni namoyon qiladi.

XULOSA

Xulosa oʻrinida shuni aytishimiz joizki, hikmatlar muallifi Ahmad Yassaviy boʻlishiga qaramasdan ular son jihatdan maʼlum miqdorga ega emas. Chunki bu muborak soʻzlar asr davomida buyuk murshidning shogirdlari tarafidan davr tiliga moslashtirilib sayqallangan va ustozidan ilhomlangan muridlar taridan ijodiy qoʻshimchalar kiritilgan.

Foydalanilgan Adabiyotlar Roʻyxati

1. Ibrohim Haqqulov. Yassaviy, Ahmad. Hikmatlar. - T.: “Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1991.
2. Nodirxon Hasan .Xoja Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirgʻoniy. - T.: Oʻzbekiston, 2022.
3. Toji Qorayev, Abul Bozorov. Hikmatlar kulliyoti. – T.: Oʻzbekiston, 2011